

QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATI HUDUDIDA TARQALGAN DARYO CHIGIRTCISI EKOLOGIYASI

Bekniyazova D.B.¹, Turdibaev Q.P.¹, Ametova N.I.¹,

Arzibaev D.F.², Matekova G.A.³

¹Berdaq momidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, O'zbekiston

dilfuzabekniyazova7@gmail.com:

²Ajiniyoz momidagi Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbekiston

³O'zRFA QQ bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti, O'zbekiston

Annotation: The scientific work presents materials on the ecology of the common tern (*Sterna hirundo*), common in the territory of the Lower Amu Darya State Biosphere Reserve. The authors studied the distribution of the species, migration periods, nesting, egg-laying and nutrition.

Daryo chigirtchisi *Sterna hirundo* - rjankasimonlar Charadriiformes turkumining baliqchilar *Laridae* oilasiga mansub qush turi bo'lib, ularning tumshug'i qayrilmagan, qanotlari uzun va ingichka, dum patlari ikkiga ayrilgan, ya'ni qaldirg'och dumini eslatadi.

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisi *Sterna hirundo* – uchib kelib koloniya bo'lib uya quruvchi, ko'p sonli qush sanaladi. Bu qushning biologiyasi va ekologiyasi Qoraqalpog'istonda K.K. Kenjekulov, A.M. Mambetjumaev, M.B. Ametov va G.A. Matekovalar tomonidan o'r ganilgan [1, 2, 3, 5].

Amudaryoning quyi oqimiga daryo chigirtchilarining bahorda uchib kelishi mart oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab, aprel oyining oxirigacha davom etadi. K.K. Kenjekulov [2] malumoti bo'yicha 30.03.1964 y., A.M. Mambetjumaev va bosh. [4] ma'lumoti bo'yicha 11.03.1966; 13.03.1967; 14.03.1968; 25.04.1969; 18.03.1972 yilda; M.B. Ametov [1] ma'lumoti bo'yicha 12.04.1973; 16.03.1974; 21.04.1975; 20.04.1976 yy. kuzatilgan. Bizning kuzatishimiz bo'yicha 2024 yili bahorda birinchi daryo chigirtchilarini mart oyining 27 sanasidan boshlab uchib kela boshladi va aprel oyining oxirigacha davom etdi.

Adabiyot ma'lumotlari bo'yicha daryo chigirtchilarining kuzgi uchib ketishi iyul oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab, sentyabr oyining birinchi o'n kunligigacha davom etadi. Orol dengizining janubiy qirg'oqlari bo'lgan Akkalada bu tur 28 va 31.08.1961 y. oralig'ida 200 tadan ko'p sonda uchragan [2]. Nukus atrofida eng so'ngi daryo chigirtchisi 27.08.1971; 14.08.1972; 02.08.1973; 01.09.1975 yy. kuzatilgan [1].

K. Kenjegulov ma'lumotlarida uyalarining diametri 11-19,5 sm (o'rtacha 15,3), chuqurligi 3,5-4,1 sm; tuxumlarining uzunligi va eni 39,5-43 x 29-31 mm, tuxumlarning massasi 16,9 - 20,3 g. (o'rtacha 18,6 g.) ni tashkil etadi [2]. M.B. Ametov ma'lumoti bo'yicha har bir uyada 3 ta tuxumdan, ayrim vaqtлari 2 ta yoki kamdan-kam hollarda 1 ta bo'ladi. Tuxumlarning uzunligi 37,8-45,0 mm, eni 28,2-32,0 mm, tuxumlarning massasi 25,5-23,9 grammni tashkil etgan. Inkubatsiya davri 20-21 kun davom etgan. Tuxumdan chiqqan polaponlarning massasi 13,0-14,7 g., 2 kunlik polaponlar 16,3-19 g., 5 kunlik 37,2-42,5 g., 20 kunlik 103,5 g. kelgan [1].

Bizning tadqiqotlarimiz bo'yicha daryo chigirtchisi Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati sharoitida asosan ozuqa resurslariga boy, shuningdek Amudaryoning o'rtasida suv sathining pasayishi tufayli hosil bo'lgan va suvdan qurigan mayda qamish va qo'g'ali gil tuproqli orolchalarga koloniya yo'ki 2-3 juft bo'lib uya quradi. Uya materialari sifatida yaqin atrofda o'sib turgan o'simliklarning qurigan shoxlaridan foydalanadi. Ayrim vaqtлari tuxumlarini o'simlik qoldiqlari yig'ilgan chuqurlarga qo'yadi.

Biz 26.04.2024; 05.05.2024; 25.05.2024; 02.06.2024; 06.06.2024; 10.06.2024 kunlari tadqiqot hududimizda jami 37 uya ro'yxatga oldik. Uyalarning diametri 130-210 mm (o'rtacha 170 mm), lotkasining diametri 60-110 mm (135 mm), uya chuqurligi 20-50 mm (35 mm) ni tashkil etadi. Uyalarni ko'zdan kechirganimizda 6 uyada 1 ta tuxum, 8 uyada 2 ta tuxum, 22 uyada 3 ta tuxum va 1 uyada 9 ta tuxum borligini aniqladik.

Tuxumlar yumaloq ovalsimon, qobig'ida dog'lari bo'ladi. Bu dog'lar aynilsa tuxumning pastki yug'on qismida ko'proq tarqalgan bo'ladi. Tuxumlarning rangi kulrang, dog'larining rangi och jigarrang va qoramtil-jigarrang bo'ladi. Dog'larning zichligi birinchi qo'yilgan tuxumlarda boshqasiga qaraganda ko'proq bo'ladi.

Tuxumlarning uzunligi 35,0-43,0 mm (o'rtacha 38,5 mm), eni 25,0-30,0 mm (27,5 mm), tuxumlarning massasi 17-21,9 g (19,45 g.) ni tashkil etadi (1-jadval)

1-jadval

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida daryo chigirtchisi tuxumlarining o'lchamlari (n=6)

Nº	O'lchamlari	max	min	o'rtacha
1	Uzunligi (mm)	30	25	27,5
2	Diametr (mm)	43	35	39
3	Og'irligi (g)	21,9	17,2	19,5

Eng daslabki polaponlar may oyining oxiridan boshlab tuxumdan chiqqa boshlaydi va bu jarayon iyun oyining ikkinchi o'n kunligigacha davom etadi (25.05.2024; 02.06.2024; 06.06.2024). Endi tuxumdan chiqqan polaponlarning massasi 13,0 - 18,56 g. (o'rtacha 15,78 g.) ni tashkil etadi. Inkubatsiya davri o'rtacha 20-21 kun davom etadi.

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisining oziqlanishi olimlar tomonidan yaxshi o'rganilgan. Oziqaning asosini mayda baliqlar, suv hasharotlari va ularning lichinkalari, mollyuskalar tashkil etgan [1, 2, 3, 5].

A.M.Mambetjumaev ma'lumot bo'yicha 22 ta polapon oshqozonini 60% mayda baliqlar (mo'ylovodr baliq va zog'ora baliq) egallagan bo'lsa, 33,3% ni qizil chumolilar, 6,6% ni o'simlik qoldiqlari tashkil etgan [3]. M.B. Ametov malumoti bo'yicha tuxumdan chiqqan polaponlar faqat mayda baliqlar bilan oziqlantirilgan. Keyinchalik esa baliqlardan tashqari, mollyuskalar, suv hasharotlari va ularning lichinkalari bilan oziqlantirgan [1].

Daryo chigirtchisining tuxum va polaponlarning nobud bo'lishining asosiy sababi - bu iqlim omillarining, shu jumladan kuchli shamol va yomg'irning salbiy tasiri hamda suv sathining ko'tarilishi, uyalarning inson faoliyati bilan bog'liq ayrim omillar va yirtqich hayvonlar tomonidan buzilishi hisoblanadi.

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisining amaliy ahamiyati katta. Malum darajada baliq chavoqlariga ziyon keltiradi, lekin butun yashash va ko'payish davrida zararkunanda xasharotlarni qirib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi. Shu sababli bu qushlarni yashash va uya qurish joylarida muhofaza qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: Каракалпакстан, 1981. – 138 с.
- 2.Кенжегулов К.К. Экология голенастых и чайковых птиц дельты Амудары // Экология важнейших млекопитающих и птиц Каракалпакии. – Ташкент, 1972. – С. 158-192.
- 3.Мамбетжумаев А.М. К гнездовой биологии и питанию некоторых околоводных и водоплавающих птиц низовьев Амудары // Вестник КК ФАН УзССР. – Нукус, 1971. – С. 36-43.
- 4.Мамбетжумаев А.М., Абдираймов Т., Аметов М. Весенний орнитологический фенокалендарь в низовьях Амудары // Вестник КК ФАН УзССР. – Нукус, 1973. - №1. – С. 24-28.
- 5.Matekova G.A. ,Alpisbaeva A.J., Jumabaeva A.K., Matekova T.A, Ayimbetova Sh.J., Abdikarimova M.G. Amudaryoning quyi oqimida daryo chigirtchisi bioekologiyasiga oid materiallar//«O'zbekiston Zoologiya fani: Hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari» V ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Toshkent, 2023. - B.264-266.
- 6.Ruyiddinov A. X. et al. QASHQADARYO VILOYATI ORNITOFAUNASINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 503-506.
- 7.Kh. Boymurodov, S. Khorazov, G. Bobonazarov, & B. Davronov (2024). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POPULATION INDICATORS OF THE SPECIES SINANODONTA GIBBA AND SINANODONTA RUERORUM OF THE UNIONIDAE FAMILY IN THE WATER ECOSYSTEMS OF THE SYRDARYO AND SANGZOR RIVERS. Science and innovation, 3 (D5), 13-18. doi: 10.5281/zenodo.11137993
- 8.Rakhmatullaev A., Gafurova L., Egamberdieva D. Ecology and role of earthworms in productivity of arid soils of Uzbekistan //Dynamic Soil, Dynamic Plant. – 2010. – Т. 4. – №. 1. – С. 72-75.
9. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 310-314.
10. kizi Norkobilova Z. B., Rakhmatullayev A. Y., ogli Boyjigitov O. D. PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 5-14.